

VII. KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI

2022 - yil 1- oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh Vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida 2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Viloyatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yhatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinmoqda, davlat ro'yhatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqishma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq etilmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy bizneslarini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2022-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

13 473



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

5 425



Oilaviy korxonona

99



Unitar korxonona

5 820



Xususiy korxonona

28



Aksiyadorlik jamiyati


209




Boshqa korxononalar

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-sentabr oylarida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (2022- yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda)





Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)

Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 18,6 foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari Mikrofirmalar Kichik korxonalar



Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish

O‘rmon xo‘jaligi

Baliqchilik xo‘jaligi




Sanoat yoʻnalishida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1-oktabr holatiga koʻra, birlikda)



Jami faoliyat koʻrsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 12,9 foizga oshdi



Kichik tadbirkorlik subyektlari Mikrofirmalar Kichik korxonalar



21

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

4 646

Ishlab chiqarish sanoati

20

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va xavoni konditsiyalash

64


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2022- yil 1- oktabr holatiga koʻra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 4 751 tani tashkil etib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 12,9 foizga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini koʻpayishining (oʻtgan yilning mos davriga nisbatan) asosiy omili ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 12,8 foizga (jami sanoatdagi ulishi 97,8 foiz), tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 10,5 foizga (jami sanoatdagi ulishi 0,4 foiz), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish sanoatida – 25,5 foizga (jami sanoatdagi ulushi 1,3 foiz) oshishidir. Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoatida – 100,0 foizga (jami sanoatdagi ulishi 0,4 foiz) teng bo'ldi.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,4 foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari




2,0 foizga oshdi




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




5,4 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




5,7 foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan 17,9 foizga kamaydi



Xususiy korxonalar




O'tgan yilga nisbatan 7,0 foizga kamaydii



Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni




(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofimlar

Kichik korxonalar



Ma'suliyati cheklangan jamiyatlar


Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022 - yil 1 - oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




2022 - yil 1 - oktabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 713 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 11,7 foizga oshdi.


Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning soni ko'payishining asosiy omili – oziq - ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlarning – 11,7 foizga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulishi 84,6 foiz), yashash bo'yicha xizmatlarning 12,8 foizga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulishi 15,4 foiz) o'sishidir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1 - oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11,7 foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




11,8 foizga oshdi



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




26,4 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




12,6 foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan 10,0 foizga oshdi



Xususiy korxonalar



0,5 foizga kamaydi




Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 14,0 foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




26,7 foizga oshdi




Oilaviy korxonalar




12,9 foizga oshdi



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar




2,5 foizga kamaydi



Tashish va saqlash sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni


Mikrofirmalar

Kichik korxonalar




Mas'ulivati cheklangan jamoatlar


Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi




Xususiy korxonalar




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2022-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni

(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha ro'yhatdan o'tgan oliaviy korxonalar soni 2022 - yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, 6 028 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 497 taga yoki 33,0 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 5 425 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 152 taga yoki 27,0 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 1 289 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 428 taga yoki 49,7 foizga oshganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yhatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra 14 442 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 421 taga yoki 20,1 foizga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 13 473 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 067 taga yoki 18,1 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar - sentabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 613 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 608 taga yoki 30,3 foizga oshganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yhatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, 195 tani tashkil etib, ulardan 186 tasi yoki 95,4 foizi faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olib qaraganda 7 taga yoki 3,6 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar - sentabr oylarida viloyatimizda 14 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilot yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022 - yil 1 - oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



2022 - y.


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

Davlat nomi	2021- yil	2022- yil
Jami	193	186
<i>shu jumladan:</i>		
Rossiya Federatsiyasi	48	45
Turkiya Respublikasi	50	50
Turkmaniston Respublikasi	27	27
Xitoy Xalq Respublikasi	15	13
Koreya Xalq Demokratik Respublikasi	10	8
Boshqa davlatlar	43	43

Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



**Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat
ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

Shahar va tumanlar nomi	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Xorazm viloyati	186	107	79
Urganch sh.	69	40	29
Xiva sh.	17	11	6
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	5	3	2
Gurlan	7	5	2
Qo'shko'pir	7	5	2
Urganch	20	5	15
Hazorasp	6	3	3
Tuproqqal'a	8	3	5
Xonqa	8	5	3
Xiva	15	8	7
Shovot	8	7	1
Yangiariq	6	4	2
Yangibozor	10	8	2

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Urganch shahrida – 69 tani (umumiy miqdoridagi ulushi 37,1 foiz), Urganch tumanida 20 tani (10,8 foiz), Xiva shahrida 17 tani (9,1 foiz), Xiva tumanida 15 tani (8,1 foiz) hamda Yangibozor tumanida 10 tani (5,4 foiz) tashkil etadi.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot - ma'lumotnoma tusidagi, vaqti - vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya - xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275 -son qarorining 1 - ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.